

AKMK bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev huzurida 2020 yil 3 dekabr' kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilish bayonining 16-bandida texnogen chiqindilar tarkibidan oltin, kumush, rangli va noyob metallarni ajratib olish texnologiyalarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish topshirig'i bir qator korxonalar va tashkilotlarga, shu jumladan Fanlar akademiyasining Navoiy bo'limiga yuktilgan edi.





Shu monosabat bilan "MISiS" MTTU Olmaliq filiali anjumanlar zalida "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJga tegishli bo'lgan topshiriklarni bajarish yo'llarini muhokama qilishga bag'ishlangan ilmiy-texnik seminar bo'lib o'tdi. Unda Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot muassasalari va Navoiy bo'limi hamda oliy o'quv yurtlari, jumladan Navoiy davlat konchilik instituti olimlari qatnashdilar.

Kun tartibidagi asosiy masaladan tashqari, Olmaliq KMKning boshqa muammolari ham ko'rib chiqildi. Ular orasida ortiqcha sul'fat kislotasini yo'q qilish yoki uni boshqa tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirish, Qizilqum fosforit majmuasida fosforitlarni kuydirish jarayonisiz boyitish imkoniyatlarini o'rganish, qurilish materiallarini ishlab chiqarish uchun "Ammofos-Maxam" AJning fosfogips chiqindilarini jalb qilish kiradi.

Ushbu masalalarni ITMLarining ilmiy-texnik salohiyatini jalb qilgan holda Navoiy olimlari guruhiga rahbarlik qilgan FA Navoiy bo'limi raisi A.U.Mirzayev o'rganib chiqib, muammolar yechimlariga qaratilgan ishlanmalarni OKMK mutaxassislariga berishga va'da qildi. Shuningdek, u bo'limning tashabbusi bilan o'tgan yilning dekabr oyida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" DK mutaxassislari bilan sanoat chiqindilarini qayta ishlash masalasi muhokama qilinganligini ta'kidladi.

Shu bilan birga, seminarda OKMK bilan tuzilgan xo'jalik shartnomalari

bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risidagi hisobotlar tegishli ITM vakillari tomonidan o'qib eshittirildi. Tadbir ishtirokchilarining bir qismi korxonaning texnik va texnologik muammolarini hal qilish bo'yicha o'zlarining g'oyalarini taqdim etdilar. Ular orasida Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limining tayanch doktoranti N.I.Xurramov ham bor. U Markaziy Qizilqum fosforitlarini kompleks qayta ishlash bo'yicha o'z takliflarini bildirdi.

Seminar yakunida ishtirokchilar turli yo'nalishdagi hamkorlikni yanada mustahkamlash zarur degan xulosaga kelishdi.

**Fevzi ISTABLAYEV,
FA Navoiy bo'limining matbuot kotibi.**